ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

“O‘ZBEKTELEKOM” AJ NING JORIY IQTIODIY HOLATI TAHLILI

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi
Ismoilova Nodira

Annotatsiya. Maqolada “O‘zbektelekom” AJning 2021–2024 yillardagi joriy iqtisodiy holati, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, asosiy fondlarga investitsiya jarayonlari hamda mehnat resurslari bilan bog‘liq xarajatlar dinamikasi chuqur tahlil qilingan. Telekommunikatsiya infratuzilmasining modernizatsiyasi, FTTH, 5G, ma’lumotlar markazlari, xalqaro internet kanallarini kengaytirish va xizmatlar diversifikatsiyasi xarajatlar o‘sishining asosiy omillari sifatida aniqlangan. Tahlil natijalari kompaniyaning raqamli transformatsiya jarayonida kapital qo‘yilmalar va import xizmatlar ulushi ortib borayotganini, kommunal xarajatlar va amortizatsiya ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish kuzatilayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. “O‘zbektelekom” AJ; iqtisodiy holat tahlili; ishlab chiqarish xarajatlari; asosiy fondlar; amortizatsiya; raqamli transformatsiya; FTTH; 5G; import xizmatlar; operatsion xarajatlar; kapital qo‘yilmalar; telekommunikatsiya infratuzilmasi; mehnat resurslari; xarajatlar dinamikasi; raqobatbardoshlik; moliyaviy barqarorlik.

O‘zbektelekom AK — O‘zbekiston telekommunikatsiya bozorining yetakchi milliy operatori bo‘lib, internet, mobil aloqa, IP-televideniye, bulutli xizmatlar va raqamli kontent sohalarida ko‘p tarmoqli xizmatlar taqdim etadi. 2021–2024 yillarda kompaniya raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi avlod texnologiyalarini joriy etishga katta e’tibor qaratdi. Bu jarayonlar mamlakatda raqamli xizmatlardan foydalanish darajasini sezilarli oshirdi va iqtisodiy o‘sishga turtki bo‘ldi.

Zamonaviy raqobat muhitida telekommunikatsiya xizmatlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish strategik ahamiyatga ega masaladir. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida global va mintaqaviy bozorlarda ustunlikni ta’minlash uchun milliy operatorlar faoliyatida raqamlashtirish texnologiyalarining joriy etilishi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasining yetakchi telekommunikatsiya kompaniyasi — “O‘zbektelekom” AK faoliyatida raqamli texnologiyalarni jalb qilish orqali xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish masalasi muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

«O‘zbektelekom» AKning 2021–2024 yillar oralig‘idagi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va dinamikasi korxona moliyaviy barqarorligi hamda xizmatlar bozoridagi raqobatbardoshligini baholashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur davr mobaynida kompaniyaning strategik rivojlanish yo‘nalishlari, raqamli xizmatlar ulushining ortishi, infratuzilma modernizatsiyasi hamda texnologik yangilanish jarayonlari xarajatlar strukturasida sezilarli o‘zgarishlar yuz berishiga olib kelgan. Tahlil jarayonida ko‘rinib turibdiki, asosiy kapital qo‘yilmalar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali xarajatlar tarkibida ishlab chiqarish xarajatlari yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Bu holat, bir tomondan, xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar talabini qondirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

1-jadval

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

“O‘zbektelekom” AK ning 2021–2024 yillar oralig‘idagi ishlab chiqarish xarajatlari (mln.so‘m)[1]

Xarajatlar nomi	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yil 2023 yilga nisbatan (+;-)
Ishlab chiqarish xarajatlari	3267878	4082740	5505063	6646755	1141692
Import xizmatlar	1040084	1291390	1667981	2185315	517334
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	172241	207641	250818	303284	52466
Yoqilg‘i-moylash mahsulotlari	12302	20382	28784	39625	10841
Kommunal xizmatlar	67419	84852	82411	177016	94605
Moddiy xarajatlar	352611	409673	312894	349532	36638
Boshqa xarajatlar	17581	18650	180640	196563	15923

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2021 yildan 2024 yilgacha ishlab chiqarish xarajatlari qariyb ikki baravarga o‘sib, 3,27 trln so‘mdan 6,64 trln so‘mga yetgan. Bu o‘sishning asosiy sabablari sifatida telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, FTTH va 5G infratuzilmasini joriy etish, hamda yangi raqamli xizmatlar portfelini kengaytirish ko‘rsatilishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlari tendensiyasini qo‘yidagi rasmda aniqroq ko‘rishimiz mumkin (2.1-rasm).

Mazkur o‘sish tendensiyasi, bozorda raqobat muhitining kuchayishi sharoitida xizmatlar sifatini va qamrov hududlarini kengaytirish zaruriyati bilan uzviy bog‘liq.


Import xizmatlar xarajatlari 2021 yildagi 1,04 trln so‘mdan 2024 yilda 2,18 trln so‘mgacha o‘sgan bo‘lib, qariyb 2,1 baravar oshish kuzatilgan. Bu holat asosan xorijiy uskunalar, dasturiy ta’minot va yuqori texnologiyali qurilmalarning importga bog‘liqligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, xalqaro valyuta kurslarining o‘zgarishi ham xarajatlar o‘sishiga ta’sir ko‘rsatgan.

[1] https://uztelecom.uz/ru ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12



1-rasm. “O‘zbektelekom” AK ning 2021–2024 yillar oralig‘idagi ishlab chiqarish xarajatlari[2]

Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari ham barqaror o‘sish sur’atini namoyon etib, 2021 yilga nisbatan 2024 yilda 1,76 baravarga ko‘paygan. Bu, asosan, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan logistika, texnik xizmat va yordamchi jarayonlar bilan bog‘liq.

2021 yilda 12,3 mlrd so‘m bo‘lgan xarajatlar 2024 yilda qariyb uch baravarga o‘sib, 39,6 mlrd so‘mga yetgan. Bu o‘sish transport parkidan foydalanish hajmining ko‘payishi, qo‘shimcha logistik yo‘nalishlarning joriy etilishi va yoqilg‘i narxlarining o‘sishi bilan izohlanadi.

Eng yuqori o‘sish kommunal xizmatlar toifasida kuzatilib, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan qariyb ikki baravarga oshgan (+94,6 mlrd so‘m). Bu holat infratuzilma obyektlari va uskunalar sonining ko‘payishi, uzluksiz elektr ta’minoti va konditsiyalash tizimlariga bo‘lgan talabning ortishi bilan izohlanadi.

Moddiy xarajatlar 2022 yilda eng yuqori darajaga yetgan bo‘lsa-da, keyingi yilda pasaygan va 2024 yilda qayta o‘sish kuzatilgan. Bu tendensiya materiallar narxining tashqi bozorlardagi o‘zgarishi, ichki zaxiralarni optimallashtirish siyosati bilan bog‘liq.

Boshqa xarajatlarda 2023 yilda keskin o‘sish (180,6 mlrd so‘m) va 2024 yilda undan ham yuqori ko‘rsatkich (196,6 mlrd so‘m) qayd etilgan. Bu, ehtimol, nostandart loyihalar, mijozlar segmentiga yo‘naltirilgan marketing aksiyalari va innovatsion xizmatlar sinov dasturlari bilan bog‘liq.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, «O‘zbektelekom» Akda 2021–2024 yillar davomida xarajatlar tarkibi va hajmidagi barqaror o‘sish strategik investitsiyalar, texnologik yangilanish va xizmatlar diversifikatsiyasi jarayonlarining izchil olib borilayotganidan dalolat beradi. Ammo importga yuqori darajada bog‘liqlik va kommunal xarajatlar keskin o‘sishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, kelgusi yillarda ichki ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish siyosatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning raqamli transformatsiya jarayonida telekommunikatsiya infratuzilmasining samaradorligi va xizmatlar raqobatbardoshligini ta’minlash uchun asosiy fondlar va ular bilan bog‘liq xarajatlar tuzilimini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, “O‘zbektelekom”

[2] https://uztelecom.uz/ru ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Ajning 2021–2024 yillar davomidagi asosiy fondlar bilan bog‘liq xarajatlar tahlili nafaqat korxonaning moddiy-texnikaviy bazasini yangilash sur’atlarini baholash, balki operatsion samaradorlik va investitsiya siyosatining maqsadga muvofiqligini aniqlash imkonini ham beradi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosiy vositalarning ta’miri, ijara xarajatlari, transport va logistika, amortizatsiya va tovar sotish bo‘yicha xarajatlar kabi yirik moliyaviy moddalarni qamrab oladi. Bu ko‘rsatkichlar orqali infratuzilmaga qo‘yilgan sarmoyalar darajasi, aktivlarni yangilash sikli va xarajatlar optimallashuvi tendensiyalari aniq ko‘rinadi.

Asosiy vositalar ta’miri (Bino va inshootlar, transport va kompyuter uskunalari) 2021 yilda ta’mir xarajatlari 118,78 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 146,22 mlrd so‘mgacha o‘sgan (+23,1%). 2023 yilda esa 50,18 mlrd so‘mga keskin pasayish kuzatilgan, bu ehtimol aktivlarni yangilashning boshqa moliyalashtirish manbalariga o‘tishi yoki investitsiyaning vaqtinchalik qisqarishi bilan bog‘liq. 2024 yilda ko‘rsatkich 77,40 mlrd so‘mgacha o‘sgan bo‘lib (+54,3%), infratuzilmani qayta tiklash va modernizatsiya ishlari qayta faollashganini ko‘rsatadi.

2-adval

“O‘zbektelekom” AK ning 2021–2024 yillar oralig‘idagi asosiy fondlari va ular bilan bog‘liq xarajatlari (mln.so‘m)[3]

Xarajatlar nomi	**2021 yil**	**2022 yil**	**2023 yil**	**2024 yil**	**2024 yil 2023 yilga nisbatan (+;-)**
Bino va inshootlar, transport va komp. qurilmalari ta’miri	118781	146224	50184	77401	27217
Bino va inshootlar ijarasi	47035	67634	65976	97387	31411
Transport va logistika xarajatlari	11782	14733	10063	17776	7713
Amortizatsiya xarajatlari	70293	83118	137644	164232	26588
Tovarlarni sotish bo‘yicha xarajatlar	238821	418810	152929	95775	-57154

Bino va inshootlar ijara xarajatlari 2021 yilda 47,04 mlrd so‘m bo‘lgan ijara xarajatlari 2022 yilda 67,63 mlrd so‘mgacha o‘sgan (+43,8%), bu filiallar soni oshishi yoki mavjud maydonlarni kengaytirish bilan izohlanishi mumkin. 2023 yilda ijara xarajatlari 65,97 mlrd so‘mga bir oz pasaygan, ammo 2024 yilda 97,38 mlrd so‘mga yetgan (+47,8%), bu raqamli xizmatlar infratuzilmasi kengayishi bilan uyg‘un.

Transport va logistika xarajatlari 2021 yilda 11,78 mlrd so‘m bo‘lgan transport va logistika xarajatlari yillar kesimida izchil o‘sib borgan: 2022 yilda 14,73 mlrd (+25%), 2023 yilda esa qisqarib 10,06 mlrd so‘mga tushgan. 2024 yilda 17,77 mlrd so‘m (+76,6%) ko‘rsatkichi kompaniyaning yetkazib berish va xizmat ko‘rsatish operatsiyalarini kengaytirganini anglatadi.


Amortizatsiya ko‘rsatkichlari 2021 yilda 70,29 mlrd so‘m bo‘lib, 2022 yilda 83,12 mlrd so‘m (+18,2%), 2023 yilda 137,64 mlrd so‘m (+65,5%) va 2024 yilda 164,23 mlrd so‘m (+19,3%) darajasiga yetgan (2.2-rasm).

[3] https://uztelecom.uz/ru ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12



2-rasm. “O‘zbektelekom” AK ning 2021–2024 yillar oralig‘idagi amortizatsiya xarajatlari[4]

Bu tendensiya asosiy vositalarning qiymati va ularni yangilash darajasi ortib borganini, shu bilan birga kompaniyaning kapital aktivlariga sarmoyalash faoliyati kuchayganini ko‘rsatadi.

Tovar sotish xarajatlari 2021 yilda 238,82 mlrd so‘m bo‘lib, 2022 yilda 418,81 mlrd so‘m (+75,3%) kabi yuqori o‘sish qayd etilgan. 2023 yilda esa 152,29 mlrd so‘mga keskin pasaygan (-63,6%), bu ehtimolan tovar aylanmasi va sotuv modelidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. 2024 yilda esa ko‘rsatkich 95,77 mlrd so‘mgacha pasayishi (-37,1%) tovarlardan ko‘ra xizmatlar ulushi oshganini bildiradi.

O‘zbekistonda telekommunikatsiya sohasining yetakchi ishtirokchisi hisoblangan “O‘zbektelekom” AKning moliyaviy barqarorligi va xizmatlar sifatini ta’minlashda mehnat resurslari bilan bog‘liq xarajatlar tuzilmasi muhim strategik ahamiyat kasb etadi. 2021–2024 yillar oralig‘ida ish haqi va u bilan bog‘liq to‘lovlar dinamikasi korxonadagi mehnat siyosati, xizmat ko‘rsatish hajmlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasidagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shokirovna B. Z. THE ECONOMIC ROLE OF OIL PRODUCTION IN THE BUKHARA-KHIVA REGION AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE COUNTRY //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – С. 55.
2. Shokirovna B. Z., Xurram o‘g‘li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.
3. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Biznes-Эксперт.
4. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y. Xurram o‘g‘li XS TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-45.
5. Худайназарова Д. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 682-687.

[4] https://uztelecom.uz/ru ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

6. Худайназарова Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.

7. Xudaynazarova D. Theoretical Basis for the Formation of Tourist Villages //Economic Development and Analysis. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.

8. Bobojonova Z. S. Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. – 2021.

9. BOBOJONOVA Z. Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–. – 2021.

10. Бобожонова З. Ш., Абдуллаева Д. Innovative development of industrial production based on the principle of synergy Bobojonova Z., Abdullayeva D. 2 Инновационное развитие промышленного производства, основанного на синергетическом принципе //PROBLEMS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – С. 64.